


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan hajmi 53 490,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti fizik hajm indeksi 107,1 foizni tashkil etdi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, hajmi va fizik hajm indeksi



■ ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 128,7 foizga o'sishi bilan birga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) 105,8 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 105,8 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash bo'yicha 86,2 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*


**2025-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	53 490,1	107,1
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	307,4	86,2
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	0,4	-
Tog'- kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	199,4	105,6
Tog'- kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	107,6	68,6
Ishlab chiqaradigan sanoat	49 397,7	105,8
<i>undan:</i>		
Oziq- ovqat ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	11 952,4	100,9
To'qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlari ishlab chiqarish	9 702,7	102,0
Yog'och va po'kak buyumlar , poxol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	685,5	103,6
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	33,6	110,8
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	21 811,8	110,3
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1 090,0	90,1
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	40,8	5,3 m.
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	2 631,6	107,9

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foizda</i>
Metallurgiya sanoati	219,6	81,1
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	1 170,5	124,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	59,2	115,8
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3 355,9	128,7
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	429,1	105,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)
(yanvar-dekabr)



■	Ishlab chiqaradigan sanoati
■	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlardan ishlashi
■	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash
■	Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 307,4 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49 397,7 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,3 foizni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2025-yil yanvar- dekabr</i>	<i>2024-yil yanvar-dekabr nisbatan foiz</i>
Benzin	<i>ming tn.</i>	1 032,7	103,0
Dizel yoqilg‘isi	<i>ming tn.</i>	422,1	151,2
Mazut	<i>ming tn.</i>	64,2	85,7
Kerosin	<i>ming tn.</i>	203,6	100,2
Aroq	<i>ming l. 100,0 foiz spirt</i>	2 252,2	52,7
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	<i>ming l. 100,0 foiz spirt</i>	22,3	124,0
Uzum vinosi	<i>ming l.</i>	169,3	44,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	28,9	106,9
Tozalangan o‘simlik yog‘i	<i>tn.</i>	9 968,0	91,3

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2025-yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024-yil yanvar-dekabr nisbatan foiz</i>
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	78,1	112,2
Paxta (linti)	<i>tn.</i>	9 227,0	154,4
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	117,6	105,2
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	<i>ming tn.</i>	48,5	121,2
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	<i>tn.</i>	564,5	142,9
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chigit va boshqa chiqindilar	<i>ming tn.</i>	78,2	103,0
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	<i>ming tn.</i>	1,4	77,0
Chakana savdo uchun qadoqlangan paxtadan yigirilgan ip	<i>tn.</i>	5 160,6	62,1
Yo'l qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar	<i>ming tn.</i>	142,6	129,0


Shu bilan birga, oxirgi 5 yilning tegishli davrlari mobaynida un mahsulotlari eng ko'p ishlab chiqarish 2020-yilning yanvar- dekabr oylariga to'g'ri kelmoqda (2020-yil – 90,8 ming tonna, 2021-yil – 85,4 ming tonna, 2022-yil – 70,8 ming tonna, 2023-yil – 18,5 ming tonna, 2024-yil – 27,1 ming tonna, 2025-yil – 28,9 ming tonna).

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish 5,3 marta ko'pni, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 198,3 foizni, elektr uskunalar ishlab chiqarish 163,9 foizni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish 142,6 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ining ulushi 0,1 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 2,0 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 52,5 foizni, quyi texnologiyali 45,4 foizni tashkil etdi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 14 479,9 mlrd.so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,
(foizda)**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 355,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,3 foizni) tashkil etdi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 28,7 foizga ko‘payganligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasi ishlab chiqarish 90,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 80,6 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2024- yil yanvar- dekabr</i>	<i>2025-yil yanvar- dekabr</i>	<i>Farqi +/-</i>
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi), <i>ming g.kal.</i>	684,5	551,0	-133,5
Elektr energiya, <i>mln.kVt.s</i>	1 685,9	1 518,7	-167,2

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 429,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 foizni) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 5,8 foizga ko‘payganligi kuzatildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 9,9 % ga kamayishi kuzatildi. Shuningdek shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 15,5 foizga ko‘payganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar- dekabr	2025-yil yanvar- dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	37 485,8	33 774,6	- 3 711,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	410,3	410,3	-

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,9 foiz ulushi), Buxoro shahri (9,4 foiz), G'ijduvon tumani (6,0 foiz), Kogon tumani (4,7 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, foizda



Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Peshku (2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan (116,3 foizga), Qorovulbozor (111,4 foizga), Qorako'1 (108,5 foizga) tumanlarida va Kogon shahri (107,5 foizga)da sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.


Sanoat mahsulotlari va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari
(2025-yil yanvar-dekabr)

	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd.so'mda ¹⁾</i>	<i>2024-yil nisbatan, foizda</i>	<i>Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming.so'mda</i>	<i>2024-yil nisbatan, foizda</i>
Buxoro viloyati	53 490,1	107,1	25 568,5	105,5
Buxoro sh.	5 040,1	104,3	16 664,8	102,5
Kogon sh.	1 576,2	107,5	23 949,1	106,4
<i>tumanlar</i>				
Olot	1 112,0	105,1	10 434,2	103,6
Buxoro	1 412,3	106,6	7 702,6	104,7
Vobkent	1 366,3	103,6	8 953,6	101,8
G'ijduvon	3 182,8	107,4	9 654,0	105,8
Kogon	2 522,2	104,2	28 940,3	102,1
Qorako'1	1 293,7	108,5	7 378,6	107,1
Qorovulbozor	22 394,9	111,4	1 092 060,9	109,3
Peshku	1 324,3	116,3	9 836,0	114,3
Romitan	2 396,8	106,4	15 522,4	105,0
Jondor	1 707,0	107,1	8 966,3	105,3
Shofirkon	1 220,0	104,2	6 450,2	103,3

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Qorovulbozor tumanida (1 092 060,9 ming so‘m) va Kogon tumanida (28 940,3 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (25 568,5 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda
(2025-yil yanvar-dekabr)**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o‘rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o‘shish sur‘atlari Peshku (2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,3 foizga), Qorovulbozor (109,3 foizga) va Qorako‘l (107,1 foizga) tumanlarida kuzatilgan bo‘lsada, faqatgina Kogon (102,1 foizga) va Vobkent (101,8 foizga) tumanlarida pasayish sur‘ati kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan 22 952,1 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 42,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shofirkon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 90,8 foiz), Jondor (89,7 foiz), Vobkent (79,2 foiz) tumanlari va Kogon shahri (76,8 foiz) da kuzatildi. Shu bilan birga, eng kam ulush G'ijduvon (55,8 foiz), Romitan (53,5 foiz) hamda Qorovulbozor (3,2 foiz) tumanlari kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda
(2025-yil yanvar-dekabr)**



***Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi***

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 207 ta loyiha bo'yicha 14 779,9 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, yanvar-dekabr oylarida 59 407,0 ming AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**
(yanvar-dekabr)

	2024-yil	2025-yil
Loyihalar soni, birlik	160	207
Korxonalar soni, birlik	148	193
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	7 677,3	14 779,9
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.	39,8	59,4
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	840	685

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 138,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. O'tgan yilda qo'shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 11,0 foizni tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 bandga ko'paygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foiz



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3 223 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan Buxoro shahriga 707 tasi, G'ijduvon tumaniga 396 tasi, Kogon tumaniga 302 tasi, Jondor tumaniga 261 tasi, Buxoro tumaniga 243 tasi, Romitan tumaniga 242 tasi, Vobkent tumaniga 229 tasi, Shofirkon tumaniga 185 tasi, Peshku tumaniga 162 tasi, Kogon shahriga 152 tasi, Olot tumaniga 151 tasi, Qorako'l tumaniga 131 tasi va Qorovulbozor tumaniga 62 tasi to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2025-yil yanvar-dekabr)



2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 413 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan Buxoro shahriga 20,5 foizi, Qorako'l tumaniga 11,1 foizi, Kogon tumaniga 10,7 foizi, Vobkent tumaniga 8,7 foizi, Kogon shahriga 8,0 foizi, G'ijduvon tumaniga 8,0 foizi, Buxoro tumaniga 5,8 foizi, Peshku tumaniga 5,6 foizi, Shofirkon tumaniga 5,6 foizi, Olot tumaniga 4,8 foizi, Romitan tumaniga 4,4 foizi, Jondor tumaniga 4,4 foizi hamda Qorovulbozor tumaniga 2,4 foizi to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Sanoat bu – xom ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tayyor mahsulot - sotish uchun mo'ljallangan va texnik hamda sifat talablariga muvofiq keladigan, tashkilotning ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi bo'lgan tovar